ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

BILIM INSONNI YUKSALTIRADI

Raxmonova Oliyabonu Nurmuxammad qizi
O'zbekiston Davlat Jahon
tillari universiteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23463881

Annatatsiya: Maqolada bilimning inson va jamiyat hayotidagi o'rni ko'rib chiqiladi. Bilimning insonni yuksaltirishi, tafakkurini rivojlantirishi va hayotiy maqsadlariga erishishdagi ahamiyati ochib beriladi. Bilim insonning adolatli, oqilona qarorlar qabul qilishini ifodalaydi. Shuningdek Abdulla Avloniyning bilim yo'lini yoritishidagi hissasini ifodalaydi.
Kalit so'zlar : bilim, natija , jamiyat, inson, tafakkur , yuksak , o'qish, daraja

Аннотация: В статье рассматривается роль знаний в жизни человека и общества. Раскрывается значение знаний в духовном и интеллектуальном развитии личности, совершенствовании её мышления и достижении жизненных целей. Особое внимание уделяется роли знаний в формировании способности человека принимать обоснованные, рациональные и справедливые решения. Кроме того, освещается вклад Абдуллы Авлони в пропаганду просвещения и образования, а также в развитие интеллектуального потенциала личности.
Ключевые слова: знания, результат, общество, человек, мышление, развитие, образование, уровень.

Abstract. This article examines the role of knowledge in human life and society. It explores the significance of knowledge in personal and intellectual development, the enhancement of critical thinking, and the achievement of life goals. Particular attention is paid to the role of knowledge in developing an individual's ability to make informed, rational, and fair decisions. Furthermore, the article highlights Abdulla Avloni's contribution to the promotion of enlightenment and education, as well as to the intellectual development of individuals.
Keywords: knowledge, outcome, society, individual, thinking, development, education, level.

KIRISH

Bilimli inson o'zining muomalasi, dunyoqarashi va boshqa insonlarga qiladigan munosabati bilan ajralib turadi . Hech kim o'z o'zidan bilimli bo'lib qolmaydi bunung uchun iroda, sabr va aqliy mehnat kerak. Ko'p insonlar men kitob o'qiyapman ilmli bo'lishga harakat qilyapman lekin nega hayotim o'zgarmayapti o'qigan narsam, olgan bilimlarim yodda qolmayapti deyishadi . Haqiqatda bu gapda jon bor. Chunki har qanday o'qish natija beravermaydi. Ko'zlar bilan emas qalb bilan o'qiy olish yuksak darajadir. Uni his qilib o'qish bilan esa o'zgarasiz. Siz bilingki boshqalarni qolidan kelgan ish sizning ham qo'lingizdan keladi siz ham o'z bilimingiz , shijoatingiz bilan dunyoni hayratda qoldirishingiz mumkin chunki boshqalarga berilgan ong va tafakkur sizda ham bor faqatgina o'zimizga ishonishimiz va shu bilan birgalikda o'z ustimizda ishlab intilishimiz kerak yuqori darajalarga. Adolatli tog'ri qarorlar qabul qilish uchun ham o'qishimiz tafakkur qila olishimiz darkor, zero tafakkur ham kitob o'qigan bilimli insongagina beriladi yaxshi ustoz, yaxshi shifokor, yaxshi kadr, yetuk shaxs bo'lish uchun ham doim bilim olishga vaqt ajrata olishimiz kerak.

ASOSIY QISM:

Bilim insonga xalovat ozini anglash hissini beradi va bu xotirjamlikka olib keladi. Ustozlarimiz aytganidek; kun kelib ortimizga qaraganimizda afsuslanish hissi bolmasligi kerak buning uchun esa orzuni maqsadga, maqsadni esa harakatga aylantirishimiz kerak . Biz havas qiladigan ko'plab milliarderlar, professorlar, sportchilar, mansabdor shaxslar ham o'z bilimi aqli, zexni orqali erishishgan. Jamiyitimizdagi turli xil adolatsizliklar, noqonuniy ishlar, ahloqsizliklarni oldini olishimiz uchun ham o'z bilimimizni oshirishimiz kerak . Xalqimiz ham bejizga aytmagan ; bilagi zo'r birni yiqar , bilimi zo'r mingni va yana ish qilganga bir tanga ish bilganga ming tanga deb. Bilim olish nafaqat , jamiyatimizga, o'zimizga foyda balki oxiratimizga ham foydasi bor savobli amaldir. Bilim insonni ongini charxlaydi, va qiyin vaziyatlarga ongli munosabatda bo'lishni o'rgatadi. Shuningdek bilimning haqiqiy qiymati insonning xulqida, odobida va qilgan amallarida namoyon bo'ladi. Har bir olingan bilim , har bir o'qilgan kitob,[1] yangi imkoniyatga yo'l ochishi mumkin. Insonning haqiqiy yuksalishi uning moddiy imkoniyatlari yoki jamiyatdagi mavqei bilangina belgilanmaydi. Uning dunyoqarashi, odobi, mustaqil fikrlashi, boshqalarga munosabati va hayotdagi mas'uliyati ham insonning darajasini namoyon etadi. Mana shu fazilatlarni shakllantirishda bilimning o'rni juda ham katta .

Bilim dunyoqarashimizni kengaytiradi, bunga misol biz havas qilgan Alisher Navoi, Zahiriddin Muxammad Bobur, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniylarlar misol bo'la oladi . Alisher Navoiy ilmli inson xalqni nodonlikdan jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida ta'riflaydi . Shuningdek, bilim bilan birgalikda insonda sabr – qanoat, saxiylik, himmat, to'g'rilik, rostgo'ylik, tavoze , odob , vafo, va boshqa yaxshi sifatlarning ham mavjud bo'lishini sanab o'tadi. Jumladan shuni aytib o'tishimiz kerakki hozir ko'pchilik yoshlar internetdan onlayn platformalardan o'qishda foydalanishadi . Lekin internet hech qachon kitobning, gazeta va jurnallarning o'rnini bosa olmaydi . Aksariyat ko'ngilsiz voqea hodisalar kitob o'qimaslikdan tafakkurimizni boyitmaslikdan kelib chiqadi[2]. Kitob o'qish , avvalo tarbiyani mustahkamlaydi , odamni yahshilikka chorlab, qalbini yoritar ekan . Yusuf Xos Hojibning ' Qutadg'u bilig' asarini tahlil qilishganda komil , bilimli inson tushunchasi quyidagicha tahlil qilinadi. Asarda komil inson - aql, bilim ,adolat, sabr , rostgo'ylik , insoniylik va ezgulik kabi fazilatlar bilan bezangan shaxs sifatida tasvirlanadi . Bilim ilmga ega inson nafaqat o'zining, balki jamiyatning ham farovonligini, tinchligini ta'minlashga intilishi kerak.[3] Buyuk yozuvchi , adiblarimiz, shoirlarimiz ham ilm -ma'rifat insonni buyuklikka yuksak cho'qqilarga yetaklaydi deb aytishadi. Va yana bir muhim narsa uning qonida bor degan yolg'onlar bilan o'zimizga ilm yo'lidagi intilishga cheklov qo'yishimiz kerak emas. Chunki bunday asossiz gaplar bizni oldinga emas orqaga yetaklaydi . Ko'plab buyuk shaxslarning ham ota onalari oddiy odamlar bo'lishgan , moddiy taraflama qiynalganini eshitganmiz. Lekin ularning buyukligi ortida biz ko'rmagan, eshitmagan sabr, qiyinchilik va shunga qaramay ilm yo'lidagi to'xtovsiz izlanishlari yotadi. Shuning uchun ham har bir inson vaqtini to'g'ri taqsimlay olmog'i , intizomli, mas'uliyatli, bo'lmog'i lozim. Abdulla Avloniy ta'limni xalqning hayot manbai , millatning najoti deb ataydi. U o'zining 'Muallimi avval' va 'Muallimi soniy' asarlarida ta'limni faqat bilim berish emas , balki insonni komillikka eltuvchi jarayon sifatida talqin qiladi. Abdulla Avloniy merosining ahamiyati ; yoshlarni bilim olishga

[1]https://cyberleninka.ru/article/n/the-essence-of-education-in-avlonis-works-teacher-first-and-teacher-second/viewer

[2] UNESCO. Media and Information Literacy (MIL). Axborotni tahlil qilish, baholash va undan mas'uliyat bilan foydalanish bo'yicha materiallar. UNESCO rasmiy manbasi.

[3] Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. Asar haqida: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi asosidagi ma'lumot.

undagan , yangi usuldagi maktablar ochish va ta'limni rivojlantirishga hissa qo'shgan, o'zbek pedagogikasi va adabiyoti rivojiga xizmat qilgan, milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qilgan. Bularning barchasini Abdulla Avloniy yosh avlodni bilimli bo'lishi yorqin kelajagiga hissa qo'shish maqsadida qilgani namoyon bo'ladi. Uning asosiy maqsadi : xalqni ilm-ma'rifatli qilish, yoshlarni tarbiyalash va zamonaviy ta'limni rivojlantirish. Har bir xalqning taraqqiyoti, avvalo , uning ilmga bo'lgan munosabati, ma'naviy qadriyatlari va yosh avlod tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq[4]. Tarixda yana shunday shaxslar bo'lganki , ular o'z hayotini xalqni jaholatdan qutqarish, insonlarni bilimli qilish va millatning kelajagini yuksaltirishga bag'ishlagan. Bilim va ilmni hech qanday moddiy ne'mat bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Moddiy boylik kamayishi, mansab o'zgarishi, imkoniyatlar cheklanishi mumkin, ammo inson egallagan haqiqiy bilim uning tafakkuri, dunyoqarashi va hayotga munosabatida o'z aksini topadi. Bilim insonni nafaqat yuksak marralarga olib chiqadi, balki unga o'zligini anglash, hayot mazmunini tushunish va jamiyatda munosib o'rin egallash imkonini beradi. 'Bilim insonni yuksaltiradi' degan fikr chuqur ma'noga ega. Chunki insonning haqiqiy yuksakligi faqat uning boyligi, lavozimi yoki tashqi mavqei bilan emas, balki aqliy salohiyati, ma'naviy dunyosi, odobi va boshqalarga keltiradigan foydasi bilan belgilanadi. Bilimli inson voqea-hodisalarni chuqurroq anglaydi, muammolarga oqilona yechim topishga intiladi va qarorlarni asosli dalillar bilan qabul qiladi. U mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish bilan birga, yangi imkoniyatlarni ham yaratishga qodir bo'la oladi. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida bilimning ahamiyati yanada ortmoqda. Zamonaviy kasblarni egallash, xorijiy tillarni o'rganish, axborotni tahlil qilish va yangiliklarga moslashish insondan muntzam izlanish va o'rganishni talab etadi. Shuning uchun bilim olishni faqat maktab yoki universitet davri bilan cheklab bo'lmaydi. Haqiqiy bilimli inson butun umri davomida o'rganishga intiladi. Bilim olishning eng muhim yo'llaridan biri kitob mutoalasidir. Kitob insonni turli davrlar, xalqlar, madaniyatlar va dunyoqarashlar bilan tanishtiradi. U insonning so'z boyligini oshiradi, fikrlash doirasini kengaytiradi va voqealarni turli nuqtai nazardan anglashga yordam beradi.

Biroq kitob o'qishning o'zi yetarli emas. O'qilgan ma'lumotni tushunish, tahlil qilish, undan xulosa chiqarish va hayotda qo'llash ham muhimdir. Chunki bilimning haqiqiy qiymati uning inson faoliyatida namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. Bilim insonni yuksaltiradi, ammo bu yuksalish tarbiya bilan uyg'unlashgandagina haqiqiy qiymati kasb etadi. Chunki bilimli bo'lish bilan birga, halol, vijdonli, mas'uliyatli va mehribon bo'lish ham zarur. Agar inson bilimidan faqat shaxsiy manfaatini ko'zlash yoki boshqalarga zarar yetkazish uchun foydalansa, uning bilimi jamiyat uchun kutilgan foydani bermaydi. Inson qancha ko'p ma'lumotga ega bo'lmasin, agar u o'rganganlarini hayotda qo'llay olmasa bilimning amaliy samarasi cheklangan bo'ladi.

XULOSA:

Xulosa qilib aytganda, bilim orqali inson dunyoni chuqurroq anglaydi, mustaqil fikrlashni o'rganadi, oqilona qarorlar qabul qiladi va o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun zarur imkoniyatlarni yaratadi. Biroq haqiqiy bilim faqat o'qilgan kitoblar yoki egallangan ma'lumotlar emas, balki insonning odobi, xulq-atvori, amaliy faoliyati va jamiyatga keltiradigan foydasi bilan ham belgilanadi. Abdulla Avloniy merosi ham ilm- ma'rifat va tarbiyaning inson kamolotidagi o'rni naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun har bir yosh bilim olishni o'zining asosiy maqsadlaridan biri deb bilishi, vaqtini

[4] Avloniy, Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. Asar haqidagi bibliografik ma'lumot: Google Books — Turkiy guliston yoxud axloq

qadrlashi, kitob mutoalasiga e'tibor berishi va doimo o'z ustida ishlashi lozim. Insonning bugungi intilishi uning ertangi yutug'iga zamin yaratadi. Hech bir muvaffaqiyat izlanish, sabr-toqat va mehnatsiz qo'lga kiritilmaydi. Shunday ekan, bilimni faqat shaxsiy manfaatimiz uchun emas, balki xalqimiz ravnaqi, jamiyat farovinligi va kelajak avlod kamoloti yo'lida ham qo'llashimiz zarur. Chunki bilimli inson o'z hayotini o'zgartirishi bilan birga, boshqalarga ham o'rnak bo'la oladi. Zero, bilim insonni yuksaltiradi, tarbiya uni kamolotga yetkazadi, ezgu amallar esa uning bilimiga haqiqiy qiymqt bag'ishlaydi. Chunki bilimli inson-taraqqiyot bunyodkori, ma'rifatli avlod esa yurt kelajagining mustahkam poydevoridir. Insonni yuksaltiradigan bilim, kamolga yetkazadigan tarbiya va buyuk maqsadlarga olib boradigan tinimsiz izlanishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. [1]https://cyberleninka.ru/article/n/the-essence-of-education-in-avlonis-works-teacher-first-and-teacher-second/viewer
2. UNESCO. Media and Information Literacy (MIL). Axborotni tahlil qilish, baholash va undan mas'uliyat bilan foydalanish bo'yicha materiallar. UNESCO rasmiy manbasi.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. Asar haqida: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi asosidagi ma'lumot.
4. Avloniy, Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. Asar haqidagi bibliografik ma'lumot: Google Books — Turkiy guliston yoxud axloq